

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**



**OLIIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“ Koinot to‘g‘risidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi” modulining

Ўқув услубий мажмуа

AKADEMIK

LISEYLAR O‘QITUVCHILARI MALAKA OSHIRISH KURSLARI UCHUN

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: “Fizika va astronomiya”

Tinglovchilar kontingenti: Akademik liseyning Fizika va astronomiya
fani o‘qituvchilari

BUXORO – 2024

Ushbu o'quv-uslubiy majmua «**Fizika fanida borliqni tushunish va tavsiflashda zamonaviy qarashlarning asosiy metodlari**» moduli bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda fizika va astronomiya fanlarining ishchi dastur, kalendar reja, ta'lim texnologiyasi, ma'ruza matni, test savollari, nazorat savollari, BMI mavzulari, mustaqil ta'lim uchun savollar va topshiriqlar, glossariy, didaktik materiallar ishlanmalari yoritilgan.

Tuzuvchi: - Buxdpi FIZIKA kafedrası dotsenti , Nazarov
Mustaqim rashidovich

Taqrizchilar:

..... - Buxdpi fizika kafedrai dotsenti, Ro'ziyev T.R

..... - BuxDU fizika kafedrai dotsenti Saidov K.S.

O‘QUV –USLUBIY MAJMUA TARKIBI

Annotatsiya.....	1
O‘QUV –USLUBIY MAJMUA TARKIBI.....	3
I.ISHCHI DASTUR	4
III.NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI.....	7
1-Mavzu: Quyosh tizimini paydo bo‘lishi.	7
2-Mavzu: So‘nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar.....	12
IV.AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI	18
1-amaliy mashg‘ulot: Hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasini o‘rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish.	18
2-Amaliy mashg‘ulot Koinot to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari.	21
V. KEYSLAR BANKI.....	23
VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....	25
VII. GLOSSARIY	25
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	34

I.ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning borliq haqidagi qarashlar evolutsiyasini o‘zlashtirish, yulduz turlari va ularning evolutsion bosqichlarini o‘rganish, astrofizik kompakt gravitatsion ob'ektlardan foydalanish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta‘minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.

Modulning vazifalari

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o‘qitishning innovasion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integrasiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

**Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma va malakalariga
qo'yiladigan talablar**

“Fizika va astronomiya” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- quyosh tizimini paydo bo'lishini;
- koinot to'g'risidagi tasavvurlarini;
- olamning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichlarini;
- zamonaviy kosmologiya modellarini;
- so'nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlarini;

Tinglovchi:

- kosmologiyadagi kashfiyotlar va tamoyillarini tahlil etish;
- hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasi o'rganish va samarali foydalanish;
- galaktikalar to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlarini o'rganish;
- protoyulduzning vujudga kelishi va uning shartlaridan foydalanish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- kosmologiyaning hozirgi kundagi holatini nomoyish etish;
- koinotning paydo bo'lishi, ulkan portlash, koinotda moddalarning shakllanishini tekshirish va baholash va umumlashtirish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

**Fizika fanida borliqni tushunish va tavsiflashda zamonaviy qarashlarning
asosiy metodlari moduli bo'yicha soatlar taqsimoti**

	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Jami	jumladan	
				Nazariy	Amaliy
1	Quyosh tizimini paydo bo'lishi.	2	2	2	
2	So'nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar.	2	2	2	
3	Xozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi	2	2		2

	strukturasini o'rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish.				
4	Koinot to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari.	2	2		2
Jami:		8	8	4	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Quyosh tizimini paydo bo'lishi.

Quyosh tizimini paydo bo'lishi. Koinot to'g'risidagi tasavvurlar. Olamning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichlar. Zamonaviy kosmologiya modellari.

2-Mavzu: So'nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar.

So'nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar. Kosmologiyadagi kashfiyotlar va tamoyillar. Kosmologiyaning hozirgi kundagi holati.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasini o'rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish.

Hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasini o'rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish. Koinotning paydo bo'lishi, ulkan portlash, koinotda moddalarning shakllanishi. Koinotda moddaning taqsimoti.

2-Mavzu: Koinot to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari.

Koinot to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari. Relikt nurlanish va Koinotning hozirgi ko'rinishi. Koinotda egrilik va uning ko'rinishlari.

ADABIYOTLARRO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Толмен Р. Относительность, термодинамика и космология. - М.:Наука,1974.
2. 14. Шапиров С., Тьюколский С. Черные дыры, белые карлики и нейтронные звезды. Физика компактных объектов. В двух частях.- М.:Наука, 1985.
3. К.А. Постнов, А.В. Засов.Курс общей астрофизики.-М.: МГУ, 2005.
4. Jo Marchant, The Human Cosmos: A Secret History of the Stars, Canongate Books, 2020.
5. Akademik litseylar uchun fizika fanidan o'quv dasturi. -T., 2020.
6. Nurmatov J, Isroilov M.I, Nishonova M. Fizika Laboratoriya ishlari. - T.:O'qituvchi'', 2002.

7. N. Sadriddinov, A. Rahimov, A. Mamadaliev, Z. Jamolova. Fizika o'qitish uslubi asoslari. -T.: O'zbekiston, 2006.
8. Кононович Э. В., Мороз В. И. Общей курс астрономии.- М.: УРСС, 2004.
9. Nuritdinov S.N, Ziyaxanov R.F., Tadjibaev I.U. Umumiy astronomiyadan masalalar to'plami.- T., O'zbekiston, 2013.
10. Nuritdinov S.N. Galaktik astronomiya kursi, ma'ruzalar matni.-T.: O'zMU, 2000.
11. Nuritdinov S.N. Umumiy astronomiya kursi.-T.: O'zMU, 2000.
12. Сурдин В.Г. Звезды.-М.: ФИЗМАТЛИТ, 2009. ИСБН: 978-5-9221-1116-4.
13. Сурдин В.Г. Галактики.- М.: ФИЗМАТЛИТ, 2013.
14. Иванов В.В. Физика звёзд. Учебное пособие.- SPb, 2005.

II. Internet saytlar

15. <http://edu.uz>
16. <http://lex.uz>
17. <http://bimm.uz>
18. <http://ziyonet.uz>
19. <http://natlib.uz>

III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-Mavzu: Quyosh tizimini paydo bo'lishi.

Quyosh tizimini paydo bo'lishi. Koinot to'g'risidagi tasavvurlar. Olamning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichlar. Zamonaviy kosmologiya modellari.

Quyosh tizimi, Quyosh sistemasi – Quyoshning gravitatsion ta'sir maydoni ichida harakatlanuvchi osmon jismlari (Quyosh, sayyoralar, sayyoralarning yo'ldoshlari, kichik sayyoralar, kometalar, kosmik changlar) majmui. Quyosh tizimi chegarasining ko'rinma o'lchami Pluton orbitasi (taxminan 40 a.b., q. Astronomik birlik) bilan aniqlansada, ammo uning haqiqiy chegarasi eng yaqin yulduzgacha (230 ming a.b. gacha) bo'lishi mumkin. Quyosh tizimining uzoq tashqi sohalari haqidagi ma'lumotlar quyoshga yaqinlashuvchi uzun davrli kometalar va shu sistemani qoplagan kosmik changlarni kuzatishdan olinadi. Quyosh tizimi hududidagi har qanday jism ham quyosh tizimiga kiravermaydi. Quyoshning ta'sir doirasidagi har bir jismning quyosh tizimiga kirishi uchun avvalo uning musbat kinetik va manfiy potensial energiyalarining yig'indisi, ya'ni to'la energiyasi manfiy bo'lishi kerak. Bunda jism quyoshning tortishish kuchini yenga olmay quyosh tizimi doirasida qoladi. Buning uchun quyosh tizimiga

tegishli jismlarga quyoshning tortishish kuchi ta'siri boshqa yulduzlarnikiga nisbatan ortiq bo'lishi kerak.

Quyosh tizimining umumiy tuzilishini birinchi marta Nikolay Kopernik to'g'ri ifodalab, Yer va sayyoralarning quyosh atrofida aylanishini asoslab berdi (XVI asr). Uning geliotsentrik sistemasi birinchi marta sayyoralarning quyosh va yergacha bo'lgan nisbiy masofalarini aniqlashga imkon berdi. S.Kepler sayyoralarning harakat qonunlarini (XVII asr boshlari), I.Nyuton butun olam tortishish qonunini (XVII asr oxiri) kashf qildilar. Bu qonunlar quyosh tizimidagi jismlar harakatlarini o'rganuvchi fan-osmon mexanikasit asos bo'ldi. Quyosh tizimiga kiruvchi kosmik jismlarning fizik tabiatini o'rganish, asosan, T.Galileshtt teleskop kashf qilganidan boshlandi. 1609-yilda Galileo Galiley o'zi yasagan kichik teleskopi yordamida Oy, Venera, Yupiter va Saturnni kuzatib, ajoyib kashfiyotlar qildi.

Quyosh tizimi jismlarining harakatlarini boshqaruvchi asosiy jism quyoshdir. Sayyoralar, asosan, ichki (Merkuriy, Venera, Yer va Mars) va tashqi (Yupiter, Saturn, Uran va Neptun) guruhlariga bo'linadi va ular o'z xususiyatlari bilan birbirlaridan tubdan farq qiladi. Ichki sayyoralarning o'rtacha zichliklari $4,0-5,6 \text{ g/sm}^3$, tashqi gigant sayyoralarniki $0,7-2,3 \text{ g/sm}^3$ bo'lishi ularning boshqa-boshqa moddalardan tashkil topganligini bildiradi. Venera, Mars, Merkuriy va Yupiter atmosferalari tekshirilganda ichki sayyoralar atmosferalari tashqilari-nikiga qaraganda ancha siyrak ekanligi ma'lum bo'ldi. Venerada SO_2 dan iborat juda zich (sathiga yaqin joyda Yer sathidagidan 60 marta zich) atmosfera mavjud. Mars atmosferasi ham, qisman, SO_2 dan iborat. Tashqi sayyoralar atmosferasi juda qalin va zich bo'lib, asosan, metan, ammiak va vodoroddan iborat. Gigant sayyoralar ichki sayyoralarga qaraganda o'z o'qlari atrofida juda katta tezlik bilan aylanadi. Plutonning fizik tabiati gigant say-yoralarnikidan tubdan farq qilganligi uchun uni tashqi sayyoralar qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Sayyoralar tabiiy yo'ldoshlarining 95 % ga yaqini tashqi sayyoralar atrofida guruhlanadi; mas, Yupiter va Saturn sayyolarining o'zlari Quyosh tizimiga o'xshash kichik sistemani eslatadi. Ularning ba'zi yo'ldoshlari (masalan, Yupiterning Ganimedi)ning o'lchamlari Quyosh tizimidagi ayrim sayyoralar (masalan, Merkuriy)ning o'lchamidan ancha katta (qarang Sayyoralarning yo'ldoshlari). Saturn sayyorasida o'zining 20 ga yaqin yo'ldoshidan tashqari, juda mayda jismlardan iborat halqa sistemasiga ega. Bu jismlar Kepler qonuniga mos ravishda harakatlanib, Saturn „yo'ldoshlari“ hisoblanadi. Bulardan tashqari, orbitalari Mars va Yupiter sayyoralari orasida joylashgan minglab Kichik sayyoralar mavjud. Ba'zi sayyoralar ekssentritetlari katta bo'lgani uchun ular Quyoshga Merkuriyga nisbatan yaqin kelib, undan Saturn orbitasi masofasiga teng masofaga uzoqlashadi.

Quyosh tizimiga kiruvchi kometalartut biz faqat Quyoshga 4-5 astronomik birlikkacha yaqinlashgandan keyin ko'ra boshlaymiz. Quyoshga yaqinlashgan sari ularning yadrosi bug'lanib koma ajralib chiqib kattalasha boshlaydi, so'ng Quyosh nurlarining bosimi ta'sirida dum hosil bo'ladi. Ba'zi kometalart perigeliyda Quyosh toji ichidan o'tib afeliyda 1 parsek uzoqlikkacha boradi va Quyosh atrofida aylanish davri bir necha o'n mln. yil bo'lishi, hatto boshqa yulduzlar tortish kuchi ta'sirida orbitalarini o'zgartirishi ham mumkin. Qisqa davrli kometalardan

yuztachasi topilgan. Ularning Quyosh atrofida aylanish davrlari bir necha o'n yildan ortiq emas. Har yili 5-10 tacha kometa kashf qilinadi.

Optik kuzatishlar yordamida ko'rinmaydigan son-sanoqsiz meteor jismlar va kosmik chang (sayyoralararo materiya) Quyosh tizimi fazosining hamma joyida mavjud. Ular ham sayyoralar kabi quyosh atrofida aylanadi. Kosmik changlarga gravitatsiya kuchlari ta'siridan tashqari quyosh radiatsiyasining bosimi, shuningdek elektr zaryadlangan zarralar harakatiga Quyosh va sayyoralarning magnit maydonlari ham ta'sir etadi.

Yer orbitasi ichidagi sayyoralararo materiyaning umumiy massasi Yer massasining yuz milliondan birini tashkil qiladi. Quyoshning ta'sir doirasi ichidagi barcha diffuz materiyaning umumiy massasi taxminan Quyosh massasiga teng keladi.

Quyosh tizimi Galaktika markazi atrofida aylanaga yaqin orbita bo'ylab 250 km/sek tezlik bilan aylanadi, uning aylanish davri 200 mln. yil. Quyosh tizimining kelib chiqishi haqidagi masala hozirgi zamon tabiat-shunosligining muhim masalalaridan biri hisoblanadi (qarang Kosmogoniya).

Quyosh tizimidagi deyarli barcha jismlar uchun ba'zi umumiy qonuniyatlar o'rinli: barcha sayyoralar Quyosh atrofidan ekliptikaga yaqin tekislikda bir tomonga (olaning shimoliy qutbidan qaralganda soat mili harakatiga tes-kari tomonga) harakatlanib aylanadi (bu to'g'ri harakat deyiladi). Venera va Urandan boshqa barcha sayyoralar o'z o'qlari atrofida to'g'ri harakat qiladi. Kosmik uchishlar quyosh tizimini o'rganishda yangi imkoniyat yaratdi. Uchirilgan kosmik zondlar Quyosh tizimidagi sayyoralarning ichki tuzilishlarini jadallik bilan tadqiq qilmokda. Kosmik zondlar Oy, Venera, Mars va boshqa sayyoralarga yumshoq qo'ndi. AQSH astronomlari birinchi marta Oyga qadam qo'ydi (1969), „Pioner—10“ va „Pioner—11“ kosmik zondlar kichik sayyoralardan o'tib, Yupi-ter sayyorasi yaqinida aylandi (1972-1974-yil). 1997-yil oktabrda uchirilgan „Gyuygens“ kosmik zondi (NASA va Yevropa kosmik agentligi bilan birgalikda loyihalangan) Saturn sayyorasining yo'ldoshi Titanga tushirildi (2005-yil yanvar). Tadqiqotchilar Titanni Yer bilan taqqoslashmoqda. Kosmik uchishlar yordamida Quyosh tizimini yanada batafsilroq o'rganish uchun yaqin kelajakda boshqa sayyoralarga parvoz qilish, uzoq kos-mosga ilmiy apparatlar yuborish, as-teroid va kometalarga qo'nib, sayyoralararo ilmiy sayohat qilish ishlari mo'ljallanmoqda.

Ф.Хойл, А.Камерон, Э.Шацман гипотезасига кура Куёш системаси айланиб кисилувчи протосайёра булутидан пайдо булган. Лаплас бундай булутдан сайёралар системасининг пайдо булишини саф механика усулида текширган эди. Ф.Хойл ва бошкалар Куёшнинг магнит майдони ва корпускуляр нурланишнинг таъсир эффецитини хам хисоблай олганлар, бу эса Куёш ва сайёралар орасида харакат микдори моментининг такисим-ланишини тушунтириш имконини берди.

О.Ю.Шмидт ва Х.Альфвен эса Куёш протосайёра булутини юлдузлараро фазодан камраб олган ва у Куёш атрофида айланиши натижасида сайёра пайдо булган деб тушунтирадилар.

Агар протосайёра булути дастлаб факат кайнок газлардангина борат деб олсак, каттик чанглар газларнинг совиши жараёнида хосил булади. Аввал силикат ва темир каби энг кам учувчи моддалар конденсацияланади. Прото-

сайёра булутининг ички кисмини Куёш киздириб туради. Бу кисмда учмайдиган чанглар хосил булган, совук ташки кисмда эса учувчи моддалар хам конденсацияланган. Ташки зонанинг совук булишига сабаб бир жихатдан булутнинг ношаффофлигидир. Агар протосайёра булутни дастлаб совук ҳолатда булиб, чанглар асосан учувчан моддалардан ташкил топган булса, булутнинг ташки томонида улар сакланиб қолиб, ички томонида Куёш нурлари таъсири сабабли бугланиб учиб кетган ва факат огир моддалардан ташкил топган булут ва жисмлар қолган. О.Ю.Шмидтнинг фикрича, бирорта протосайёра булутининг чанг компонентасидан тахминан 1 млн. йил давомида қатталиги бир неча 100 км ли жисмлар пайдо булган. Кейинги юз миллион йилда бу жисмлардан сайёралар хосил булган. Энг катта сайёралар Юпитер ва Сатурин аккумуляция босқичида ҳатто газларни ҳам қамраб олган.

Булут моддаларининг қуюқланиш жараёнини турлича тушунтирилади. Масалан, чангларнинг юпка дискка йиғилиб, унинг турли нукта-ларида қуюқлашиши; чангларнинг бир-бирига ёпишиши ва бошқалар. Сайёраларнинг аккумуляция жараёни ёрдамида уларнинг Куёшдан узоклик қонуниятларини, уз уқи ва Куёш атрофида бир томонга айланишини текшириш мумкин. Протосайёра булутининг баъзи қуюқлашган булакларининг тукнашиши натижасида йулдошлар пайдо булиши тушунтирилади.

Ойнинг пайдо булиши ҳақида бошқа гипо-тезалар ҳам мавжуд Ж.Даврин гипотезасига қура Ой Ердан ажралиб чиққан. Бошқа бир гипотезага қура Ер орбитаси яқинида чанг қуюқланишидан шуни қурсатадики, Ер шари 200 миллион йилда ҳозирги қатталигига эришган, марказида температура-тураси 1000^0 К, сиртки қисми совук булган. Кейин-чалик радиоактив элементларнинг иссиқлик ажратиши ҳисобига ички қисми қизиб суюқ ҳолатга келган. Буни ҳозирги замон геохимия маълумот-лари ҳам тасдиқлайди.

Диффуз муҳит галактиканинг магнит майдони таъсирида унинг спирал шохобчаларида бўлади. Бундаги қучсиз магнит майдони юлдуз-ларни тутиб тура олмайди, шуниг учун ҳа қари юлдузлар спирал шохобчаларга деярли боғлиқ булмайди. Ёш юлдузлар қупинча катта-катта тудаларни ташкил этади. Тудаларда қенгаювчи газ ва чанг қуп учрайди. Газ ва чанг билан тулдирилган бирон-бир қекли фазода диффуз муҳит массаси маълум критик микдордан ортиб кетса, тортишиш қучи таъсирида материя бу фазода сиқила бошлайди. Бу ҳодисани гравитацион конденсация дейилади. Критик масса микдори зичликка, температурага ва уртача молекуляр огирликка боғлиқ.

Қизил гигант босқичидаги юлдузнинг зич ядросида маълум бир вақтда гелийнинг қарбонга айланиш реакцияси юз бериши мумкин. Бунинг учун юлдуз марказидаги температура $1,5 \cdot 10^8$ К булиши қерак. Гелий реакцияси тутагандан сунг юлдузнинг ташки қобиғи қенгайди ва фазога тарқалиб кета бошлайди. Баъзида бу ҳодиса портлаш қуринишида юз беради.

Қобик секин тарқалса, унинг факат марказий ядроси қолади ва сайёра туманлиги хосил бўлади. Агар юлдуз массаси Куёш массасидан 2-3 марта катта булса. Ок Қарлик юлдуз хосил бўлади. Ок қарликларда ядро реакцияси

булмайди. Улар илгари тупланган иссиқлик энергияси хисобига нур сочади. Галактикада юлдуз ва юлдузлараро модданинг нисбати вақт ўтиши билан ўзгариб боради, чунки модданинг бир қисми ок карликларга айланиб, юлдузларда газ ва чанг камаяди. Галактиканинг шакли умумий галактик магнит майдонининг айланиши билан белги-ланади. Агар галактика секин айланаётган бўлса, юлдузлараро газ оғирлик кучи таъсирида марказга йиғилади. Шундай қилиб, галактикалар эволюциясини сфера шаклидаги газ - булут қуринишидан бошлаб текшириш мумкин. Булут тез айланса, спирал галактика ҳосил бўлади. Юлдузлар космогониясида В.А.Амбарцумнинг юлдузлар ассоциацияси кашфиёти муҳим аҳамиятга эга. У юлдузларнинг группа-группа бўлиб пайдо бўлишини аниқлади. Космогоник проблемаларни ҳал этишда физика, химия, геология, биология ва бошқа фанларнинг ютуқларидан фойдаланилади.

Назорат учун саволлар.

1. Протосайёра нима ?
2. Шмидт назарияси ?
3. Диффуз муҳит нима ?
4. Гравитацион конденсация нима ?
5. Протоюлдузлар нима ?
6. Хайл гипотезаси.
7. Ойнинг пайдо бўлиши.
8. Дарвин гипотезаси.
9. Кизил гигантлар.
10. Юлдузларнинг зич ядроларидаги температура.
11. Ок карлик.
12. Кора "туйнук" лар.

Таянч иборалар : дейтерий, Ок карлик, Дарвин гипотезаси, моддаларнинг қуюклашиши, аккумуляция.

Адабиётлар

1. Б.А.Воронцов - Вельяминов. "Сборник задач и практических упражнений по астрономии" М." Наука " 1979 г.
2. К.А.Куликов. " Курс сферической астрономии " М. "Наука" 1969 г.
3. Мурсалимова Г., Рахимов А. Умумий астрономия курси. Т. "Ўқитувчи", 1976 й.
4. Климишин Ш.А., Астрономия наших дней. М. : "Наука" . 1980г.
5. Нуриддинов С.Н. "Сомон йули (физикаси)". Ташкент, "Ўзбекистон", 1989 й.
6. Воронцов - Вельяминов Б.А. Сборник задач и практических упражнений по астрономии. М.: "Наука", 1974 г.

7. П.И.Попов, Б.А.Воронцов-Вельяминов, Р.В.Куницкий. Астрономия, 5-нашри, "Просвещение", М. 1967.
8. П.И.Бакулин, Э.В.Кононович, В.Н.Мороз, Курс общей астрономии. Тузатилган 3-нашри. "Наука", М., 1974.
9. Б.А. Волинский. Астрономия. "Просвещение", М., 1971.
10. Ж.Брандт ва П.Ходж. Астрофизика Солнечной системы. "Мир", М., 1967.
11. Солнечные процессы и их наблюдения. 1983.

2-Mavzu: So‘nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar.

So‘nggi yillardagi kosmologiyadagi aniqlangan fundamental qonuniyatlar. Kosmologiyadagi kashfiyotlar va tamoyillar. Kosmologiya ning hozirgi kundagi holati.

Kosmologiya (kosmos va ... logiya) — Koinotning tuzilishi va rivojlanishini hamda nisbiylik nazariyasi ob’ektlarini kuzatuv ma’lumotlari bilan nazariy tadqiqotlar yordamida o‘rganuvchi fan. Asosiy maqsadi — zamonaviy astronomiya va fizika bilimlariga asoslanib, Koinotning evolyusion modelini tuzish, ya’ni uning boshlang‘ich holatidan to bugunga qadar va kelajakdagi taraqqiyoti bosqichlarini tahlil qilish.


Zamonaviy K. asoslariga ko‘ra, butun Koinotning eng ko‘p massasini galaktikalar va yulduzlar tashkil etgan. Lekin 15—18 mlrd. yil ilgari uning barcha moddasi dastlab qiyoslash qiyin bo‘lgan o‘ta zich holatda bo‘lgan. Bu o‘ta zich va o‘ta yuqori temperaturali holatni fizika fani hali umuman ishlab chiqmagan. Kuzatuvlarga tayanib, bu holatni "o‘ta kuchli" va "katta" portlash ro‘y bergan, Koinotning birlamchi materiyasi kengayuvchan, bir jinsli va izotrop xususiyatlariga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan uning zichligi va temperaturasi jadal pasayib borgan, deb xulosa qilingan. Koinotning qaynoq modeli doirasidagi hisob-kitoblarga ko‘ra, uning temperaturasi 0,001 sek.da ikki marta pasayib 10^{12} — 10^4 K gradusga yetadi. Koinot yoshi 1 sek.ga to‘lganida temperatura $T=10^{10}$ — 10^9 K oralig‘ida bo‘lib, shu davrda geliy va deyteriy kabi yengil elementlar yadrolari vujudga keladi.

Koinotning birinchi nostatsionar (kengayuvchi) modelini 1922-yil rus olimi A. A. Fridman (1888—1925) taklif qilgan. A. Eynshteyn Koinotning statsionar modelini tuzgan. AQSH astronomi E. Xabbl (1889-1953) 1929-yil Fridmanning kengayuvchi modelini kuzatuv yo‘li bilan tasdiklagan. "Qaynoq" Koinot nazariyasini 1948-yil amerika olimi G. A. Gamov (1904—68) taklif etgan.

Fridman K.sida Koinot dastlab o‘ta zich singulyar holatda bo‘lib, xususan, $\rho=10^{15}$ — 10^{16} g/sm³ S. vaqtda uning zichligi $\rho=10^{15}$ gr/sm³ deyilgan. Zamonaviy Koinot turli yoshdagi galaktikalar olamidan iborat va kamida bir necha yuz mln. parsek masshtabdan boshlab zichligi bir jinsli va izotropik xususiyatlarga ega. Mas, bizdan atigi 1,5-10’ parsek masofa oralig‘ida bir necha mlrd. galaktikalar kuzatiladi. K. da bir jinslilik va izotropik xususiyatlar kosmologik prinsip deyiladi

va u yuqoridagi evolyusion modelning asosini tashkil etadi. 1965-yil amerikalik astronomlar A. A. Penzias va R. V. Vilson Koinot portlashi davridan saqlanib qolgan "relikt" kashf qilishgan. Kuzatuvlarga ko'ra, Quyosh sistemasi "relikt" "nurlanishiga nisbatan 420 km/sek tezlik bilan harakat qiladi. Zamonaviy K. norelyativistik va relyativistik qismlardan iborat. Norelyativistik K. fazo va vaqtni o'zaro jips bog'lanmagan holda qaraydi. Relyativistik K. esa fazo-vaqt geometriyasida ish ko'rib, klassik fizikaning ayrim tushunchalari (mas, inersial sanoq sistemasi) hisobga olinmaydi va o'rniga yangilari (mas, fazo-vaqt egriligi va boshqalar) kiritiladi. Koinot takdiri uning o'rtacha zichligi kritik qiymat 5-10 30 gr/sm³ dan katta yoki kichik ekanligiga bog'liq. Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, Koinotning o'rtacha zichligi 5-10~31 gr/sm³ ga teng. K.da tabiati bizga noma'lum ko'rinmas massa muammosi hal etilmagan. Bu massa, xususan, galaktikalar tojida galaktikalar to'dalari va ular orasidagi fazoda yetarlicha mavjudligi aniq. U Koinot takdirigagina emas, balki galaktikalar evolyusiyasiga ham ta'siri o'ta muhim ekani ma'lum. O'zbekistonda K.ning bu kabi astrofizik muammolari O'zbekiston milliy universiteti astronomiya kafedrasida, nisbiylik nazariyasi bilan bog'liq ayrim masalalari esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida o'rganiladi.

Kosmologiya



- Olam
- Katta portlash
- Olam yoshi
- Olam xronologiyasi

Erta olam [ko'rsat]

Kengayayotgan olam [ko'rsat]

Tuzilma shakllanishi [ko'rsat]

Olam kelajagi [ko'rsat]

Komponentlari [ko'rsat]

Tarixi [ko'rsat]

Tajribalar [ko'rsat]

Olimlar [ko'rsat]

Ijtimoiy ta'siri [ko'rsat]

- K
- M
- T

Reliktiv nurlanish (lotincha: *relictum* — qoldiq; boshqa nomlari: **qoldiq nurlanish**, **kosmik mikroto'liqlik fon nurlanishi**) — kosmik elektromagnit

nurlanish. Relativ nurlanish intensivligi va spektri mutlaq qora jismning 2,7 K bilan nurlanishiga mos keladi. Relativ nurlanishning mavjudligi to'g'risida birinchi marta 1948-yilda amerikalik olim George Gamow (1904—68), „qaynoq Koinot“ nazariyasida tilga olgan. Bu modelga ko'ra, Koinot ilk davrda (galaktika va yulduzlar paydo bo'lguncha) o'ta zich va qaynoq (o'ta yuqori haroratli) bo'lgan. Bu harorat vodoroddan geliyni sintezlovchi yadro reaksiyalarining bo'lishi uchun yetarli bo'lgan. Sintez tufayli fazo o'ta zich elektromagnit nurlanish bilan to'yingan bo'lib, kuchsiz qoldiqlari relativ nurlanish ko'rinishida kuzatiladi. Relativ nurlanishni 1965-yilda Arno Penzias va Robert Wilson 7,35 sm to'lqin uzunligida kashf etganlar.

Keyinchalik Koinot kengayish natijasida soviy boshlagan. „Boshlang'ich“ vaqtdan bir necha yuz ming yil keyin atrof muhitning temperaturasi 3000—4000K gacha pasaygan, zichlik esa $\rho=10\sim20$ g/sm³ bo'lgan. Shu paytdan boshlab kimyoviy elementlar paydo bo'la boshlagan. Kengayish hozirgi kungacha davom etmoqda, deb hisoblansa, Koinot ham o'zidagi modda kabi sovimoqda, degan xulosa chiqadi. Hozirgi zamonga $t=10^{10}$ yil bo'lgan; Koinotning hozirgi zichligi $\rho=10\sim2$ g/sm³ deb olinsa, Koinot harorati 2,7 K bo'lgan relativ nurlanishni sohib turishi kerak. Darhaqiqat, 1965-yilda Bell telefon kompaniyasi (Angliya)ning radioantennasi 2,7K haroratli relativ nurlanishni, ya'ni 7,35 sm to'lqin uzunlikdagi radio nurlanishni qayd etdi.[1]

Xabbl qonuni – koinotning uzluksiz kengayishi xususiyatini ifodalovchi qonun; 1929-yilda E.Xabbl taklif etgan. Bu kengayishning eng oddiy modeli bolalar sharini puflaganda uning kattalashishidir. Bunda shar sirtidagi boshlang'ich nuqtalar bir-biridan vaqt davomida uzoqlashib boradi. Kuzatuvchi shu nuqtalarning (galaktikalar to' dasining) birida joylashgan, deb tushuntiradi. Galaktikalar to' dalari va kvazarlarning bizdan uzoqligi R va uzoqlashish tezligi V orasidagi bog'lanish quyidagicha ifodalanadi: $V=HR$; bunda H – Xabbl doimiysi. Xabbl qonuni katta masshtabda doimo o'rinli, H doimiy fizik tabiatiga ko'ra, vaqtga bog'liq funksiya bo'lib, gravitatsion tortish kuchlari Koinot kengayishini sekinlashtirishi mumkin.

Xabbl qonuni amalda keng qo'llanadi. Uning yordamida, xususan, bizning galaktikamizdan juda uzoqda joylashgan obyektlargacha bo'lgan masofa osonlik bilan aniqlanadi. Buning uchun obyektning spektridan uning qizilga siljishi qiymati topilib, yuqoridagi formuladan masofa qiymati hisoblanadi. Koinot galaktikalari, odatda, ko'proq to' dalarni hosil qilib, ularga kirmaydiganlari (o'z xususiy tezliklari bo'lgani uchun) Xabbl qonuniga taxminan 15% xatolik bilan bo'ysunadi.

Qizilga siljish (astronomiyada) — yorug'lik manbai spektridagi chiziklar to'lqin uzunliklarining etalon manba spektri chiziqlari to'lqin uzunliklariga nisbatan uzayishi hodisasi. "Q s" deb atalishining sababi bu hodisa tufayli spektrning ko'rinma qismidagi chiziqlar spektrning qizil tomoniga siljigan holda ko'rinishidir. Q. s, birinchidan, Doppler effekti natijasida, ya'ni yorug'lik manbai kuzatuvchiga

nisbatan uzoqlashayotganda, ikkinchidan (gravitatsion Q s), kuzatuvchi yorug'lik manbaiga nisbatan kichikroq gravitatsion potentsialli joyda turganda paydo bo'ladi.

Xabbl: koinotda galaktikalar bisyor!

Koinot shugina Somon yo'li galaktikasi bilan cheklanmasligi, aksincha, Somon yo'li ham koinotning shunchaki ovloq bir cheti ekani haqidagi fakt 1924-yilda Edvin Xabbl tomonidan isbotlandi. U Maunt-Vilson rasadxonasidagi 100 dyumlik teleskopdan o'sha Messye obyektlaridan biri – Andromeda tumanligini sinchiklab kuzatdi. Bu tumanliklarning o'zi nima ekanini hech kim bilolmay yurgan paytda Xabbl Andromeda Somon yo'lga qo'shni bo'lgan yana bir galaktika ekanini ko'rsatib berdi. Shundan so'ng koinotdan yana yuzlab, minglab va millionlab galaktikalar kashf etildi.



Edvin Xabbl. Foto: Wikipedia

Hozirgi kunda koinotda bizga ma'lum galaktikalar soni 400 milliarddan 2 trilliontagacha deb baholanadi. Ayrim manbalarda hatto galaktikalar soni 7 trilliontadan ziyod ekani keltiriladi. Biroq bu borada aniq raqamni haliveri hech kim ayta olmasa kerak. Chunki buni aniqlash uchun nafaqat teleskoplarimiz imkoniyati chegaralangan, balki fizika qonunlari ham yo'l qo'ymaydi. Masalan, o'ta favqulodda olisdagi galaktikalarning nuri shunchaki bizga yetib kelmasligi mumkin; qolaversa, koinotda galaktikalar muntazam va beto'xtov bir-biridan uzoqlashadi, ya'ni koinot kengayib boradi. Ustiga ustak, bu kengayish bir maromda emas, balki tezlanish bilan sodir bo'lmoqda. Shunga ko'ra, bizdan eng olisdagi galaktikalarning tezlanishi shu qadar kattaki, ularning nuri bizga yetib kelishdan avval qizilga siljish qonuniga ko'ra mahv bo'lib ketadi va biz ularni hech qanday teleskop bilan ko'ra olmaymiz.

Fridman va Georgiy Gamov: Ulkan portlash

Koinot beto'xtov va tezlanish bilan kengayayotganini ham Edvin Xabblning o'zi 1929-yilda isbotlab bergan edi. Bu fakt yuzasidan XX asrning 30-yillarida ilmfanda juda katta bahslar boshlanib ketdi. Basharti koinot kengayayotgan bo'lsa, demak, qachonlardir u torroq bo'lgan! Shu mantiqqa ko'ra, "kassetani orqaga aylantirsak", uzoq o'tmishda koinot juda tor joyni egallagan, kichik hajmli bo'lgan. Eng boshida esa u hajmi cheksiz kichik va zichligi cheksiz katta bo'lgan nuqtadan favqulodda Ulkan portlash orqali shakllangan bo'lib chiqadi!



Georgiy Gamov. Foto: Wikipedia

Borliqning aynan shu mantiqqa asoslangan taraqqiyot manzarasi bugungi kun ilmfanda tan olingan nazariya hisoblanadi. Uni Ukrainadan AQShga muhojirlikka ketgan olim Georgiy Gamov taklif qilgan "qaynoq koinot" nazariyasi asosida shakllantirilgan.

Adolat yuzasidan aytish joizki, Ulkan portlash nazariyasini Gamovdan avvalroq Aleksandr Fridman ilgari surgan edi. Uning g'oyalariga ko'ra, Ulkan portlashdan keyin koinot birdaniga kengayib, undan Quyosh va yulduzlar bir paytning o'zida paydo bo'lgan deb yanglish qarash bildirilgan. Gamov va undan keyingilar esa Ulkan portlash darhol biz bilgan koinotni hosil qilmagani, aksincha, koinot boshida juda qaynoq bo'lib, u asta-sekinlik bilan sovishi oqibatida evolyutsion rivojlanish yuzaga kelgani, yulduz va sayyoralar shakllanishiga milliardlab yillar ketganini ko'rsatib berdi.

Hozirgi bizning koinot bundan 13,7 milliard yil oldin shunday bir kichik, o‘ta zich va o‘ta qaynoq nuqtaning Ulkan portlashidan hosil bo‘lgan degan qarash bu siz va bizning zamonimiz odamlari tasavvuridagi olam manzarasidir. Borliq haqidagi bugungi kun tasavvuri shu miqyosni egallagan. Hozircha.

Hozircha deyilishiga sabab, yuqoridagi matndan ko‘rib turibsizki, borliq haqidagi bilimlarimiz ham tobora kengayib bormoqda. Ajab emaski, biz yoki bizdan keyingi avlod bundan ham ko‘proq ma‘lumotni qo‘lga kiritar va odamzotning olam tuzilishi haqidagi tushunchalari yanada kengayib boraverar.

Koinot 2.0 – Multivers?

Inchunun, hozirda ilm-fanda endi-endi shakllanib kelayotgan “multivers nazariyasi” bu borada navbatdagi qadam bo‘lishi mumkin.




Foto: Google Photos

Multivers nazariyasiga ko‘ra, bizning koinot ham yolg‘iz emas va unga qo‘shni boshqa yana ko‘plab koinotlar bor. Xuddi bizning koinot qachonlardir bitta kichik nuqtadan portlab paydo bo‘lgani singari, boshqa shunday nuqtalar qayerdadir portlamayotganiga hech kim kafolat bera olmaydi. Qo‘shni koinotlarda mutlaqo boshqacha fizika qonunlari amal qilishi va u joylarda biz tasavvur ham qila olmaydigan ishlar bo‘layotgan bo‘lishi mumkin.

Multivers nazariyasini tekshirish olam manzarasi haqidagi tasavvurlarimizni navbatdagi bosqichga olib chiqadigan jarayon bo‘ladi. Bu keyingi bir necha avlod olimlar uchun mushohada mavzusi bo‘lishi kutilmoqda.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI


1-amaliy mashg'ulot: Hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasini o'rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish.

Hozirgi zamon eksperiment va astronomik kuzatuvlardan koinotning yirik masshtabdagi strukturasini o'rganish va samarali foydalanish haqida zarur bilimlarni olish. Koinotning paydo bo'lishi, ulkan portlash, koinotda moddalarning shakllanishi. Koinotda moddaning taqsimoti.

Galaktikadan tashqi astronomiya

Galaktikalarning Xabbl klassifikatsiyasi

Birinchi bo'lib galaktikalarni sinflarga ajratish masalasini amerikalik astronom olim Edvin Xabbl 1925 yili hal etgan. U dactlab galaktikalarni quyidagi 3 ta sinfga ajratish mumkinligini taklif qilgan: elliptik E, spiral S va noto'g'ri Ir galaktikalar.



8.1 - rasm. Tipik spiral galaktikalar [5]: NGC 5194 (A), NGC 5236 (B),

NGC 2997 (C) va NGC 628 (D).

E galaktikalarning eng ajoyib xususiyati shunda-ki, ularda ravshanlik galaktika markazidan tashqariga qarab faqat masofa koordinatasi bo'yicha juda uzluksiz kamayib borib, yaqqol biror ichki tuzilmaga ega emas. Sirtqqi ravshanlikni masofaga bog'liqligi oddiy empirik munosabat bilan ifodalanishini birinchi bo'lib Xabbl topgan:


$$B(r) = \frac{B_0}{(r+a)^n}, \quad (8.1)$$

bu erda B_0 va a – konstantalar bo'lib, har bir galaktika uchun qiymatlari kuzatuvdan topiladi. Keyinchalik bu munosabat Vokuler tomonidan batafsilroq o'rganilib, ravshanlik taqsimoti $r^{0.25}$ qonuni bo'yicha juda yaxshi aniqlikda ifoda qilinishini ko'rsatib bergan.

Agar ravshanlikning bir xil yonma-yon turgan qiymatlarini fazoda birlashtirib chiqsak, unda biz yagona markaz atrofida qator konsentrik (biri birini ichiga olgan) deyarli ellipslar ko'rinishidagi ta'svir hosil qilinishini guvohi bo'lamiz. Har qanday elliptik galaktika o'z bosiqqligi


$$n = \frac{1}{2} \left(1 + \frac{a-b}{a} \right)$$

qiymati bilan ma'lum En sinfchalarini tashkil qiladi. Bunda a va b galaktikaning katta va kichik yarim o'qlari, kvadrat qovus esa kuzatuv asosida hisoblangan qiymatning faqat butun qismi n ga teng deb olinishi lozimligini bildiradi. Kuzatuvlar esa n qiymati 0 dan to maksimum 7 gacha bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan (8.2-rasm). Bu masalaning fizik sabablari haqida quyida albatta to'xtalib o'tamiz.



8.2-rasm. Taniqli elliptik galaktikalar [5]: NGC 205, M49 va M87.


Spiral galaktikalar disksimon ko'rinishga ega bo'lib, yadrolari sferoid yoki uzun ulagich (inglizcha «Bar») ekaniga qarab ikki yirik turga ajratiladi: normal S va ulagichli SB. Lekin bu ikki turni o'zi spirallar qay darajada ochiq yoki yadroga tarang o'ralgan ekaniga qarab yana qo'shimcha alohida 3 sinfga bo'linadilar: a, b, c. Bunda a sinfi - galaktika xajmining nisbatan ancha qismini egallagan yadrosi atrofida tarangroq o'ralgan, b - yadrosi va spirallar o'ralganligi o'rta meyorda va c sinfi – xajmi nisbatan kichik yadro atrofida ochiq o'ralgan spiral strukturalardan iboratligini (8.3 va 8.4- rasm) bildiradi.



8.3-rasm. Normal spiral galaktikalarning shartli ko'rinishi.

Noto'g'ri galaktikalar na elliptik na spiral strukturaga yaqin. Ularda hech bir simmetriya xususiyati yo'q. Lekin ob'ektlari nisbatan ravshan bo'lib, ular uncha massiv emas. Bu sinfni Xabbl *Ir* deb belgilagan (8.4-rasm). Keyinchalik bu

galaktikalarni ular ob'ektlari yoshroq yoki nisbatan qariroq ekaniga qarab ikkita tipga bo'lish mumkinligi aniqlandi. Natijada Xabbl kuzatuv ma'lumotlari asosida galaktikalarining quyidagi sinflar ketma-ketligini tuzdi (8.4-rasm):



$$E_0 - E_1 - E_2 - \dots - E_7 - S_0 - \begin{matrix} S_a - S_b - S_c \\ SB_a - SB_b - SB_c \end{matrix} \parallel Irr$$

8.4-rasm. Xabbl ketma-ketligi (yoki kamertoni).

1936 yili Xabbl va Shepli markazida yadrosi biroz sezilarli, lekin disksimon qismi albatta mavjud bo'lib, bosiqqligi nisbatan kattaroq elliptik galaktikalarga o'xshashlarini topishgan va ularni alohida SO sinfi bilan ifodalab, yuqoridagi ketma-ketlikga E7 dan so'ng kiritishgan. Adabiyotda ushbu galaktikalar linzasimon deb ataladi. Bu turdagi galaktikalarda gaz va changlar ma'lum miqdorda bor, lekin spirallar diskda umuman kuzatilmaydi. Bu klassifikatsiyani Xabbl kamertoni ham deb yuritiladi.

Xabbl linzasimon galaktikalarni quyidagi uch sinfga ajratgan:

SO₁ - disk qismi va uni o'rab turgan qobiq aniq strukturaga ega bo'lmay, ular amorfsimon (masalan, NGC 3065, 4684, 1332),

SO₂ - qobig'i yaqqol ajralgan va ma'lum tuzilishga (xalqaga) ega, disk esa amorfdir (NGC 4459, 4111, 4215).

SO₃ - disk qismi juda yorug' va xalqasimon strukturaga ega (yon tomoni bilan ko'rinadigan SO galaktikalarda seziladi).

1940 yillari 8.4-rasmdagi Xabbl ketma-ketligiga amerikalik olim J.Jins fizik ma'no berish mumkin deb hisoblab, evolyusiya sferik E0 xolatdan elliptik va spiral galaktikalar bosqichlaridan o'tib, noto'g'ri galaktikalargacha davom etadi degan fikrni ilgari surgan. Unga ko'ra, boshida galaktikaning siqilishi tufayli elliptik galaktikalar, uning aylanishi oshib borishi tufayli esa boshqa galaktikalar yuzaga keladi. So'ngra uning asta diski paydo bo'lib, unda spirallar tug'ilishi ro'y beradi deb o'ylagan. Galaktikaning differensial aylanishi tufayli esa spirallar aralashib ketib noto'g'ri galaktikalar vujudga kelishini hisoblab chiqqan. Djins nazariyasiga

ko‘ra elliptik galaktikalar yosh, noto‘g‘ri galaktikalar esa qari bo‘lishi kerak. Lekin kuzatuvlar noto‘g‘ri galaktikalar yosh, elliptik galaktikalar ancha qari ekanini ko‘rsatadi. Turli galaktikalar ichida eng ko‘p foizni, 8.1-jadvalga ko‘ra, umuman olganda

8.1 – jadval

Tip	E	SO	S	Ir I	Ir II	Pekulyar	Jami
Soni	199	329	934	39	13	14	1530
% i	13	21.5	61.1	2.55	0.85	0.9	100

spiral galaktikalar tashkil etadi. O‘rta hisobda esa foiz jihatidan munosabat quyidagichadir:

2-Amaliy mashg‘ulot *Koinot to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari.*

Koinot to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ularning tamoyillari va imkoniyatlari. Relikt nurlanish va Koinotning hozirgi ko‘rinishi. Koinotda egrilik va uning ko‘rinishlari.

Koinot modeli va tuzilishi

Koinotni bir butun deb qaralgandagi tuzilishi va evolyusiyasini o‘rganadigan fan kosmologiya deyiladi. Kosmologiya o‘rganadigan masalalar ichida eng muhimlari - fazo va vaqtning geometrik strukturasi, evolyusiyasi, uning turli ob’ektlarining, ayniksa galaktikalar va ularning to‘dalarining tashkil topishi va rivojlanishi masalalaridir.

